XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-017-9-130-K/24 Guliston shahar

Guliston shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastragentligining 2024-yil 11-martdagi Sirdaryo viloyati hokimligiga 04/08-2328-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Guliston shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasining 2024-yil “19” noyabrdagi 3-15/298- sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Guliston shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha shahar komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Guliston shahri bilan chegaradosh boʻlgan Guliston, Boyovut, Mirzaobod tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yoʻl va boshqa tabiiy va sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining shahar boʻlimi boshligʻi K.A.Ismoilovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Qurilish, kommunal soha, sanoat, transport va ekologiya masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi hamda shahar hokimining oʻrinbosari A.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



XODJIMANOV
JAMOLIDDIN
XUSNUDDINOVICH

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-9-130-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Guliston shahri, Mirzabod va Guliston tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yoʻli boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°34'15,636", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°44'30,758").*

A dan B gacha Guliston tumani yerlari bilan 1 - 17 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 3306 metr masofani oʻtib, temir yoʻli boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'31,261", sharqiy uzunlik 68°45'02,545").*

2 - nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻldan qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 98 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 64 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 323 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 114 metr masofani oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 43 metr masovani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'35,756", sharqiy uzunlik 68°45'24,282").*

3 - nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2396 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'34,202", sharqiy uzunlik 68°46'30,712").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 965 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'32,254", sharqiy uzunlik 68°47'11,632").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2426 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'13,846", sharqiy uzunlik 68°47'09,501").*

6 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1774 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va beton ariqqa tutashadi, keyin umumiy yoʻnalishni oʻzgartirmagan holda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 502 metr masofani oʻtib, beton ariq boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'56,923", sharqiy uzunlik 68°45'35,775").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i beton ariq bo‘yidan zovurni kesib o‘tadi va umumiy janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 163 metr masofani o‘tib, keyin zovurni kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, so‘ng tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 504 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'36,001", sharqiy uzunlik 68°45'40,136").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 551 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'39,982", sharqiy uzunlik 68°46'02,903").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 494 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'24,363", sharqiy uzunlik 68°46'07,430").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1874 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'38,051°", sharqiy uzunlik 68°47'24,997").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3763 metr masofani o‘tib, R-27 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'39,405", sharqiy uzunlik 68°48'01,332").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i R-27 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1733 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'34,840", sharqiy uzunlik 68°49'14,696").*

13 – nuqtadan chegara chizig‘i R-27 avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va ariqqa o‘tadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 907 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'05,456", sharqiy uzunlik 68°49'13,669").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 344 metr masofani o‘tib, keyin devorga o‘tadi va devor bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 105 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'00,998", sharqiy uzunlik 68°49'28,038").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 198 metr masofada ko‘prikga o‘tib, keyin ko‘prikning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 52 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 59 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 117 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'55,932", sharqiy uzunlik 68°49'21,988").*

16 – nuqtadan chegara chizig‘i zovur bo‘yidan dala tuproq yo‘liga o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 754 metr masofani o‘tib, Guliston shahri, Guliston va Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida

joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'54,006", sharqiy uzunlik 68°49'53,891").*

B dan D gacha Boyovut tumani yerlari bilan 17 - 22 - nuqtalar oraliʻida chegara tavsifi quyidagicha:

17 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan ariqqa oʻtadi va umumiy janubiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 410 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va ekin yeri chekiga tutashadi, soʻng ekin yeri cheki boʻylab janubiy yoʻnalishda 379 metr masofada zovurga tutashadi, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1258 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'32,805", sharqiy uzunlik 68°48'58,197").*

18 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 360 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 498 metr, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 401 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1009 metr masofada zovurga oʻtib, keyin janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 407 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʼyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'45,899", sharqiy uzoqlik 68°48'37,058").*

19 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtadi va zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1284 metr, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 50 metr masofani oʻtib, soʻngra zovurni kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 812 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 440 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, avtomobil yoʻli boʼyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'39,154", sharqiy uzoqlik 68°47'07,585").*

20 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 254 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 138 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtib, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 115 metr, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 182 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 119 metr masofada avtomobil yoʻliga oʻtib, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 126 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25,359", sharqiy uzoqlik 68°46'54,910").*

21 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy yoʻnalishda 197 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 9 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 236 metr, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 155 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 146 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 88 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 211 metr masofada zovurga oʻtib, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 205 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli koʻprigiga oʻtadi va avtomobil yoʻli koʻprigining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 82 metr masofani oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'27,562", sharqiy uzoqlik 68°46'16,895").*

D dan A gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 22 - 1 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

22 – nuqtadan chegara chizig'i avtomobil yo'li ko'prigini kesib o'tib, temir yo'liga tutashadi va temir yo'lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 1179 metr masofani o'tib, temir yo'li bo'yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'04,778", sharqiy uzoqlik 68°46'05,489")*.

23 – nuqtadan chegara quruq chiziq orqali g'arbiy-janubiy-g'arbiy yo'nalishda 136 metr masofada temir yo'lini, avtomobil yo'lini, zovurni kesib o'tadi va devorga tutashadi, keyin devor bo'ylab umumiy g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 620 metr, so'ng umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 166 metr masofada qishloq ichki yo'liga tutashadi, so'ngra yo'lning janub tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 59 metr, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 221 metr masofani o'tib, kanal bo'yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'14,459", sharqiy uzoqlik 68°45'41,310")*.

24 – nuqtadan chegara chizig'i kanalning suv oqimi bo'ylab chap tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 182 metr masofani o'tib, keyin to'g'ri chiziq orqali shimoliy yo'nalishda 35 metr masofada kanalni kesib o'tadi va R-29 avtomobil yo'liga tutashadi, so'ng yo'lning janub tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 1239 metr masofani o'tib, avtomobil yo'li bo'yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,315", sharqiy uzoqlik 68°44'41,271")*.

25 – nuqtadan chegara chizig'i R-29 avtomobil yo'lini kesib o'tib, qishloq ichki yo'liga o'tadi va yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 145 metr masofada devorga tutashadi, keyin devor bo'ylab umumiy g'arbiy yo'nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 43 metr, so'ng shimoliy yo'nalishda 78 metr, so'ngra sharqiy yo'nalishda 69 metr, keyin janubiy yo'nalishda 98 metr, so'ng sharqiy yo'nalishda 110 metr masofani o'tib, devor bo'yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'22,993", sharqiy uzoqlik 68°44'47,279")*.

26 – nuqtadan chegara chizig'i devor bo'ylab shimoliy yo'nalishda 143 metr, keyin g'arbiy yo'nalishda 47 metr masofani o'tib, so'ng ariqni kesib o'tadi va devor bo'ylab shimoliy yo'nalishda 213 metr masofani o'tib, so'ngra qishloq ichki yo'lini kesib o'tadi va devor bo'ylab shimoliy yo'nalishda 77 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'li bo'yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'36,411", sharqiy uzoqlik 68°44'43,770")*.

27 – nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lining janub tomoni bilan g'arbiy yo'nalishda 146 metr, keyin yo'lning g'arb tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 325 metr masofada zovurni, qishloq ichki yo'lini kesib o'tib, yo'l bo'yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'47,143", sharqiy uzoqlik 68°44'37,886")*.

28 – nuqtadan chegara chizig'i qishloq ichki yo'lidan ariqqa o'tadi va ariqning suv oqimi bo'ylab o'ng tomoni bilan shimoliy yo'nalishda 421 metr masofani o'tib, qishloq ichki yo'liga tutashadi va yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo'nalishda 45 metr masofada tomorqa chegarasiga o'tib, keyin tomorqa chegarasi bo'ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo'nalishda 91 metr, so'ng sharqiy yo'nalishda 159 metr masofada qishloq ichki yo'lini kesib o'tib, so'ngra yo'lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g'arbiy yo'nalishda 314 metr, keyin yo'lning shimol tomoni bilan sharqiy yo'nalishda 72 metr masofani

oʻtib, soʻng zovurni kesib oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 400 metr masofada zovurni kesib oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'26,254", sharqiy uzoqlik 68°44'43,802").*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlinig janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 290 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va tomorqa devorga tutshadi, soʻng tomorqa devori boʻylab shimoliy yoʻnalishda 429 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 107 metr masofani oʻtib, soʻngra zovurni kesib oʻtadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 411 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'52,603", sharqiy uzoqlik 68°44'56,482").*

30 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga tutashadi, keyin tomorqa chegarasi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 433 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtib, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 272 metr masofani oʻtib, keyin tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 59 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 150 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 91 metr masofani oʻtib, Doʻstlik kanali boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'21,738", sharqiy uzoqlik 68°45'03,660").*

31 – nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3366 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'27,270", sharqiy uzoqlik 68°43'09,574").*

32 – nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 901 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'46,637", sharqiy uzoqlik 68°42'36,576").*


33 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 146 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtadi va zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 2281 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 242 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'03,093", sharqiy uzoqlik 68°42'50,836").*

34 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 507 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2258 metr masofada kanalni kesib oʻtadi va tomorqa chegarasiga oʻtib, soʻng tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 221 metr masofada avtomobil yoʻlini, temir yoʻlini kesib oʻtib, temir yoʻli boʻyida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'15,636", sharqiy uzoqlik 68°44'30,758").*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-017-9-130-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston shahrining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Guliston shahrining ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Guliston shahri ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*